DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-06-06-16 Pages: 142-152

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about

ARTISTIC INTERPRETATION OF THE TRAGEDY OF LOSING ONE'S HOMELAND IN SHUHRAT'S NOVEL "THOSE WHO SOUGHT PARADISE"

Mokhinur Tulqinovna Khujaeva
1st year master's student
Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: tragedy of losing the homeland, courage of a woman, image of paradise, national identity, traditions and values, patriotism, selflessness, betrayal and dishonor, system of characters.

Received: 03.10.26
Accepted: 04.10.26
Published: 05.10.26

Abstract: The article analyses the novel "Jannat qidirganlar" ("Those Who Sought Paradise") by Shuhrat, People's Writer of Uzbekistan, which depicts the lives of Uzbeks abroad. It reveals the symbolic meaning of paradise, the characters of Azam, Nafisa and others, the theme of longing for the homeland, and the educational value of the novel for today's youth.

SHUHRATNING «JANNAT QIDIRGANLAR» ROMANIDA VATANGADOLIK FOJIASINING BADIIY TALQINI

Mohinur Tulqinovna Xo'jayeva
1-kurs magistranti
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
E-mail: mokh.khujaeva@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: vatangadolik fojiasi, ayol jasorati, jannat timsoli, milliy o'zlik, an'ana va qadriyatlar, vatanparvarlik, fidoyilik, xiyonat va nomardlik, obrazlar tizimi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Shuhratning chet elda yurgan o'zbeklar hayotini yoritgan «Jannat qidirganlar» romani tahlil qilinadi. Asardagi «jannat» timsolining ramziy ma'nosi, Azam, Nafisa va boshqa qahramonlar obrazi, vatan sog'inchi mavzusi hamda romanning bugungi yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati ochib berilgan va mustaqil fikrlar bildirilgan.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ ТРАГЕДИИ ПОТЕРИ РОДИНЫ В РОМАНЕ ШУХРАТА «ИСКАТЕЛИ РАЯ»

Мохинур Тулкиновна Хужаева
Магистрант 1 курса
Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: трагедия потери родины, женская отвага, образ рая, национальная идентичность, традиции и ценности, патриотизм, самоотверженность, предательство и подлость, система образов.

Аннотация: В статье анализируется роман народного писателя Узбекистана Шухрата «Жаннат қидирганлар» («Искатели рая»), посвящённый жизни узбеков за рубежом. Раскрываются символическое значение образа рая, образы Азама, Нафисы и других героев, тема тоски по Родине, а также воспитательное значение романа для современной молодёжи, приводятся самостоятельные суждения автора.

Kirish. Adabiyot xalq qalbining, uning tarixiy xotirasi va ma’naviy olamining in’ikosi sanaladi. Har bir badiiy asar muallif qalbidan tug‘ilgan hayotiy tajriba, o‘y-xayollar va jamiyatdagi muammolarning badiiy talqinidir. O‘zbek adabiyotida inson qismati, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar va ma’naviy izlanishlarni o‘zida mujassam etgan asarlar ko‘plab yaratilgan. Ulardan biri O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shuhrat (G‘ulom Alimov) qalamiga mansub «Jannat qidirganlar» romanidir.

Mazkur roman yurtidan yiroqda yurgan o‘zbeklar taqdirini keng epik ko‘lamda tasvirlagani bilan o‘zbek nasrida yangi mavzu yo‘nalishini boshlab bergan asarlar sirasiga kiradi. Asarda baxtni o‘zga yurtdan izlagan kishilarning orzu-umidlari, ma’naviy iztiroblari va milliy o‘zlikni yo‘qotish xavfi chuqur yoritilgan. Yozuvchi obrazlar taqdiri orqali vatangadolik fojiasi, xiyonat, fidoyilik, vatan sog‘inchi kabi tushunchalarni teran ifodalaydi [6].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv sharoitida mehnat va ta’lim migratsiyasi keng tus oldi, minglab yoshlar xorijda tahsil olmoqda va ishlamoqda. Bunday sharoitda «inson uchun haqiqiy jannat qayerda?» degan savol yangicha ma’no kasb etadi. Shuhrat romani ana shu savolga badiiy javob izlagan asar sifatida bugun ham o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Shu bois asarni zamonaviy kitobxon nigohi bilan qayta o‘qish, undagi g‘oyaviy-badiiy qatlamlarni tahlil qilish adabiyotshunoslik uchun ham, yoshlar tarbiyasi uchun ham ahamiyatlidir.

Maqolaning maqsadi «Jannat qidirganlar» romanining g‘oyaviy-badiiy mazmunini, qahramonlarning ichki kechinmalarini, muallif yondashuvini va asarning bugungi yoshlar ma’naviyati uchun tutgan o‘rnini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: birinchidan, romanning yozuvchi ijodidagi o‘rnini aniqlash; ikkinchidan,

sarlavhadagi «jannat» timsolining ramziy ma'nosini ochish; uchinchidan, asosiy obrazlar tizimini tahlil qilish; to'rtinchidan, asarning tarbiyaviy ahamiyatini asoslash.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Shuhrat ijodi o'zbek adabiyotshunosligida turli yillarda o'rganilgan. XX asr o'zbek adabiyoti tarixiga bag'ishlangan fundamental tadqiqotda adibning nasriy merosi, xususan, «Shinelli yillar», «Oltin zanglamas» va «Jannat qidirganlar» romanlari urushdan keyingi davr o'zbek romanchiligi taraqqiyotining muhim bosqichi sifatida baholangan [2]. S. Mirvaliyevning adiblar hayoti va ijodiga oid ma'lumotnoma kitobida yozuvchining tarjimayi holi, ijodiy yo'li haqida muxtasar ma'lumot berilgan [3]. Adabiyotshunos U. Normatov «Oltin zanglamas» romaniga bag'ishlangan maqolasida yozuvchining haqiqatni aytish yo'lidagi jasoratini, shaxsga sig'inish davri fojialarini birinchilardan bo'lib qalamga olganini alohida ta'kidlaydi [4]. Ushbu kuzatish «Jannat qidirganlar»ni tushunish uchun ham muhim, chunki har ikki roman g'oyaviy jihatdan bir-biriga yaqin turadi va kitobxonlar orasida ikkinchi asar birinchisining mantiqiy davomi sifatida qabul qilinadi.

Tadqiqotning nazariy asosini badiiy obraz, syujet, kompozitsiya va ramz haqidagi adabiyotshunoslik qarashlari tashkil etadi. D. Quronov ta'kidlaganidek, badiiy obraz hayotning ijodkor ko'ngli orqali qayta yaratilgan, umumlashma va individuallikni o'zida birlashtirgan manzarasidir [5]. Q. Yo'ldoshev esa badiiy asarni tahlil qilishda matnning o'ziga tayanish, muallif nazarda tutgan ma'noni asar to'qimasidan topish zarurligini uqtiradi [8]. Maqolada ana shu tamoyillarga amal qilindi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, tavsifiy, biografik va germenevtik tahlil usullaridan foydalanildi. Biografik usul yozuvchi hayoti bilan asar g'oyasi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatishga, qiyosiy usul romanni adibning boshqa asarlari va mumtoz adabiyotdagi g'urbat mavzusi bilan solishtirishga, germenevtik tahlil esa matndagi ramz va timsollarni talqin qilishga xizmat qildi.

Natijalar va muhokama. Yozuvchi ijodi va romanning yaratilishi. Shuhrat 1918-yilda Toshkentda tug'ilgan, Ikkinchi jahon urushida qatnashgan, urushdan keyingi yillarda esa asossiz qatag'onga uchrab, bir necha yil ozodlikdan mahrum bo'lgan adibdir [3]. Hayotning achchiq sinovlari uning ijodida chuqur iz qoldirdi. Urush haqiqati «Shinelli yillar» romanida, qatag'on davri fojialari «Oltin zanglamas» romanida [7], vatandan ayrilgan kishilar qismati esa 1968-yilda e'lon qilingan «Jannat qidirganlar» romanida badiiy ifodasini topdi [2]. Ko'rinadiki, adibning uchala yirik asari ham bir savol atrofida aylanadi: inson og'ir sinovlar qarshisida o'zligini, e'tiqodini va sadoqatini saqlab qola oladimi?

«Jannat qidirganlar»ning o'ziga xosligi shundaki, unda yozuvchi nigohi ilk bor mamlakat tashqarisiga, chet elda yurgan o'zbeklar hayotiga qaratiladi. O'sha davr adabiyoti uchun bu mavzu deyarli ochilmagan qo'riq edi. Adib musofirlikdagi kishilarning turmushini tashqi ko'rinishdan,

ya’ni to‘kin dasturxon va serhasham ko‘chalar tasviridan emas, balki inson ruhiyatidan, uning ichki bo‘shlig‘i va sog‘inchidan turib yoritadi. Roman yigirma oltita kichik qismdan iborat bo‘lib, har bir qismga mazmunidan kelib chiqib sarlavha qo‘yilgan [6]. Bunday tuzilish asarni o‘qishni yengillashtiradi, har bir bob mustaqil hikoya kabi tugallangan ma’no tashiydi va ayni paytda umumiy syujet ipiga bog‘lanadi.

Sarlavhadagi «jannat» timsoli. Asar nomining o‘zi kitobxonni o‘ylashga undaydi. Jannat diniy-falsafiy tasavvurda mutlaq farovonlik, osoyishtalik va adolat maskani hisoblanadi. Roman qahramonlari esa jannatni yerdan, aniqrog‘i, begona yurtdan izlaydilar. Ularning nazarida jannat mol-dunyo, mansab va oson turmushdir. Yozuvchi sarlavhaga «topganlar» emas, aynan «qidirganlar» so‘zini qo‘ygani bejiz emas. Bu so‘z izlanishning samarasiz tugaganiga, ro‘yobga chiqmagan orzuga ishora qiladi. Asar davomida kitobxon bosqichma-bosqich bir haqiqatni anglaydi: boshqa yurtlardagi hayot uzoqdan go‘zal ko‘rinsa-da, har yerda tosh-u tarozi bor, inson uchun haqiqiy jannat esa kindik qoni to‘kilgan tuproqdir.

Shu tariqa «jannat» timsoli romanda ikki qutbli ma’no kasb etadi. Bir tomonda soxta jannat, ya’ni birovning boyligi evaziga, vijdonni sotish hisobiga quriladigan farovonlik turadi. Ikkinchi tomonda chinakam jannat, ya’ni halol mehnat, oila mehri, do‘st sadoqati va ona yurt bag‘ri turadi. Roman konflikti ana shu ikki tushunchaning to‘qnashuvidan o‘sib chiqadi.

Azam obrazi va taqdir hukmi. Romandagi yetakchi qahramonlardan biri Azam obrazidir. Yozuvchi uni dastlab yolg‘onchi, yengiltak yigit sifatida tanishtiradi. U talabalik yillaridanoq qizlarga «qarmoq tashlab» yuradi, ko‘plab qizlarning qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldiradi. Uning hayotdagi yagona orzusi boy xonadonning qiziga uylanish va qaynotasi orqali boylik orttirishdir. O‘qishni tugatib, bir korxonaga oddiy ishchi bo‘lib ishga kirgach, u hech qanday o‘sishga erisha olmaydi, chunki yuksalishni mehnatdan emas, tanish-bilishdan kutadi [6].

Kunlarning birida Azam taksida bog‘chada ishlaydigan Nafisa ismli qizni uchratadi va uni yoqtirib qoladi. Yoshlar bir hafta birga yuradilar. Biroq Nafisaning ota-onasi yo‘qligi, kambag‘al oiladan ekani ma’lum bo‘lgach, Azam uni tashlab ketadi. Bu epizod qahramon xarakterining mohiyatini ochib beradi: u uchun muhabbat ham, inson ham boylikka erishish vositasi, xolos. Yozuvchi bu holatni «Tulki tumshug‘idan ilindi» deb nomlangan qismdayoq yaqqol ko‘rsatadi. Sarlavhadagi xalq maqoli qahramonning kelajagiga oldindan ishora qiladi: ayyorlik bilan tuzilgan har qanday reja oxir-oqibat o‘z egasining boshiga yetadi.

Azamning keyingi hayoti shu ishoraning tasdig‘idir. Mansab va boylik ilinjida u ona yurtidan yuz o‘giradi, o‘zga elda moddiy farovonlikka yetishgandek bo‘ladi, ammo ko‘ngil xotirjamligini topa olmaydi. Musofirlikda unga insonning o‘z yurti naqadar aziz ekani ayon bo‘ladi. Xotimada esa Azam qilmishlariga yarasha jazosini oladi. Yozuvchi bu yerda muhim falsafiy xulosani ilgari suradi: inson xayoli bilan emas, taqdir hukmi bilan yashaydi, taqdir esa

haqiqat tarafdoridir. Shuni aytish kerakki, adib Azamni bir yoqlama qoralamaydi. U qahramonning ichki ikkilanishlarini, pushaymonligini, kech bo‘lsa-da uyg‘ongan vijdon azobini ham ko‘rsatadi. Aynan shu jihat obrazni jonli va ishonarli qiladi.

Nafisa obrazi: ayol jasorati va sadoqati. Romandagi eng yorqin obrazlardan biri Nafisadir. U yetimlikda ulg‘aygan, bolalar bog‘chasida ishlaydigan oddiy qiz. Yozuvchi uning tashqi go‘zalligidan ko‘ra ichki olamini, sabr-bardoshi va mehrini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Asarda ayolning yoriga sadoqati, qaynotasiga mehr-oqibati, begona inson bolasiga ham o‘z farzandidek achinishi ta’sirchan lavhalarda ochib berilgan [6]. Nafisa taqdir zarbalari oldida sinmaydi, alamini kekka aylantirmaydi, balki mehnat va mehr bilan o‘z hayotini tiklaydi.

Azam va Nafisa obrazlari romanda qarama-qarshi qo‘yilgan. Azam baxtni tashqaridan, o‘zgalar olamidan izlaydi va oxir-oqibat hech narsaga ega bo‘lmaydi. Nafisa esa baxtni o‘z mehnatidan, o‘z uyidan va yaqinlariga bo‘lgan sadoqatidan topadi. Yozuvchi bu qarama-qarshilik orqali «jannat qayerda?» degan savolga javob beradi: jannat odamning ichida, uning pok niyati va halol amalida. O‘zbek adabiyotida ayol obrazi an’anaviy tarzda sabr va vafo timsoli sifatida talqin etiladi. Shuhrat bu an’anani davom ettirgan holda, Nafisani faqat sabrli emas, balki jasoratli, o‘z qadrini biladigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan ayol sifatida tasvirlaydi. Shu ma’noda Nafisa obrazi o‘tgan asrning oltmishinchi yillari o‘zbek nasridagi ayol qahramonlar galereyasida alohida o‘rin tutadi.

Vatangadolik fojiasi tasvirlangan boshqa obrazlar. Romanda Azamdan tashqari vatanni tark etgan yana bir qancha kishilar taqdiri qalamga olingan. Ular orasida boyligini saqlab qolish ilinjida yurtidan chiqib ketgan Saidakbar hoji obrazi alohida ajralib turadi. U o‘zga yurtda moddiy jihatdan muhtojlik ko‘rmasa-da, ma’nan yolg‘iz, ildizidan uzilgan daraxtga o‘xshaydi. Yozuvchi bu obraz orqali vatangadolikning yoshga ham, mavqega ham qaramasligini, boy ham, kambag‘al ham begona elda birdek g‘arib ekanini ko‘rsatadi.

Ummatali obrazi esa fojianing boshqa qirrasini ochadi. U halol, to‘g‘riso‘z inson bo‘lib, otasining xorijga ketib qolgani uchun nohaq jabr ko‘radi [6]. Demak, vatanni tark etgan kishi faqat o‘z taqdirini emas, ortida qolgan yaqinlarining taqdirini ham xavf ostiga qo‘yadi. Bir kishining xatosi butun oilaning boshiga kulfat bo‘lib tushadi. Ummatali ana shu og‘ir sinovda ham odamiylikni, e’tiqodni yo‘qotmaydi. Qahramonlarning bir-biriga ko‘rsatgan insonparvarligi, fidoyiligi romanning eng yorug‘ sahifalarini tashkil etadi. Bu obrazda adibning o‘z hayotiy tajribasi, nohaqlik azobini boshidan kechirgan inson dardi sezilib turadi. Biografik tahlil shuni ko‘rsatadiki, yozuvchi adolatsizlik haqida kitobiy bilim asosida emas, shaxsiy kechinma asosida yozgan, shu sababli tasvir samimiy va ishonarli chiqqan.

Vatan sog‘inchi va mumtoz an’ana. Romanda milliylik, vatanparvarlik, an’ana va qadriyatlar masalasiga keng o‘rin berilgan. Voqealar rivojida milliy o‘zlik tushunchasi doimo ustunlik qiladi.

Inson qaysi yurtda yashashidan qat'i nazar, kindik qoni to‘kilgan yerga sodiq bo‘lib qolishi kerakligi asarning bosh g‘oyalaridan biridir. Azam musofirlikda yurganida Zahiriddin Muhammad Bobur qismati esga olinadi: Bobur o‘zga yurtda shoh bo‘lsa-da, vatan sog‘inchi uni bir daqiqa ham tark etmagan.

Bu murojaat tasodifiy emas. O‘zbek adabiyotida g‘urbat va vatan sog‘inchi mavzusining eng yuksak namunalari Bobur ijodida uchraydi. Shoirning mashhur ruboiysini eslaylik: «Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi, Har ishniki ayladim xatolig‘ bo‘ldi. O‘z yerni qo‘yib Hind sori yuzlandim, Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi» [1]. Buyuk saltanat qurgan hukmdor o‘z yurtidan ayrilganini «yuz qarolig‘» deb ataydi. Shuhrat ana shu mumtoz an'anaga tayanib, vatan tuyg‘usining moddiy farovonlikdan ustun turishini ta'kidlaydi. Farq shundaki, Bobur taqdir taqozosi bilan yurtidan ayrilgan bo‘lsa, roman qahramonlari o‘z ixtiyori bilan, nafs va manfaat yetovida vatanni tashlab ketadilar. Shu bois ularning fojiasi yanada og‘irroq: ular sog‘inch bilan birga vijdon azobini ham tortadilar.

Yozuvchi inson yurt tanlab tug‘ilmasligini, qaysi yurtda tug‘ilsa ham, u uchun jannat o‘z yurti, uning tuprog‘i ekanini, vatanning bir qarich yeri ham bebaho ekanini qayta-qayta uqtiradi. Bu fikr quruq shior tarzida emas, qahramonlar kechinmasi, ularning xotiralari, tushlari, ona tilida aytilgan bir og‘iz so‘zga zor bo‘lishlari orqali beriladi. Natijada kitobxon vatan qadrini aql bilangina emas, his bilan ham anglaydi.

Romanning badiiy xususiyatlari. Asarning badiiy qimmati faqat mavzu yangiligida emas, tasvir mahoratida ham ko‘rinadi. Birinchidan, yozuvchi syujetni qiziqarli va shiddatli quradi. Voqealar rivoji kitobxonni mavj urib oqayotgan dengiz kabi o‘z bag‘riga tortadi, o‘quvchi qahramonlar bilan birga yashaydi, ularning qayg‘usi-yu quvonchiga sherik bo‘ladi. Ikkinchidan, boblarga qo‘yilgan sarlavhalarda xalq maqollari va iboralaridan unumli foydalanilgan. Bu usul asar tilini xalqona, jonli qiladi, ayni paytda muallif munosabatini ham ifodalaydi. Uchinchidan, adib psixologik tasvirga alohida e'tibor beradi. Qahramonlarning ichki monologlari, ikkilanishlari, pushaymonlik onlari keng yoritiladi.

To‘rtinchidan, romanda kontrast, ya'ni qarama-qarshi qo‘yish usuli yetakchi badiiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Vatan va g‘urbat, sadoqat va xiyonat, halollik va nomardlik, chin jannat va soxta jannat tushunchalari butun asar davomida yonma-yon keladi. Adabiyotshunoslikda ta'kidlanganidek, badiiy obrazning ta'sir kuchi ko‘p jihatdan uning hayotiy ziddiyatlarni qay darajada qamray olishiga bog‘liq [5]. Shuhrat qahramonlari ana shunday ziddiyatlar ichida ko‘rsatilgani uchun ham kitobxon xotirasida uzoq saqlanadi. «Oltin zanglamas»da boshlangan haqiqatni ro‘yirost aytish an'anasi [4] bu romanda ham davom etgan: yozuvchi hayotning og‘ir tomonlarini bo‘yab ko‘rsatmaydi, qahramonlar xatosini yashirmaydi.

Asarning tarbiyaviy ahamiyati. «Jannat qidirganlar» har qanday kitobxonning e'tiborini tortibgina qolmay, unga hayotiy saboq vazifasini ham o'taydi. Asar yakunida taqdirdan qochib bo'lmasligi, har qanday yomonlik o'z jazosini topishi, xiyonat va nomardlik bilan hech narsaga erishib bo'lmasligi tasvirlangan. Hayotni o'zgalar olamidan izlamaslik, birovlar orqali mansabga va boylikka erishishni ko'zlamaslik lozimligi asarning asosiy saboqlaridan biridir. Inson mansab va martabaga tinimsiz mehnati, halol peshona teri orqali erishadi.

Bugungi kunda xorijda tahsil olayotgan va ishlayotgan yoshlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Chet elda bilim olish, tajriba orttirish tabiiy va foydali jarayon. Roman esa bu jarayonni inkor etmaydi. U faqat bir narsadan ogohlantiradi: qayerda bo'lmasin, inson o'zligini, tilini, qadriyatlarini va vatan oldidagi burchini unutmasligi kerak. Shu jihatdan asar adabiyot darslarida, ma'naviyat soatlarida, talabalar bilan o'tkaziladigan kitobxonlik bahslarida foydalanish uchun qimmatli manba bo'la oladi. Romanni o'qigan yosh kitobxon Azam bilan Nafisa taqdirini solishtirib, hayotda qaysi yo'l to'g'ri ekanini o'zi xulosa qiladi. Badiiy asarning tarbiyaviy kuchi ham aynan shunda: u nasihat qilmaydi, balki o'ylashga majbur etadi [8].

Asarni mutolaa qilish jarayonidagi shaxsiy kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, roman zamonaviy o'quvchiga ham yaqin. Undagi savollar, chunonchi, baxt nima, boylik insonni baxtli qila oladimi, sadoqat qadrlanadimi, degan savollar har bir davr yoshlari oldida ko'ndalang turadi. Yozuvchining javobi aniq: halol hayotga, shukronalik bilan yashashga hech narsa teng kelmaydi. Jannatni inson o'z qo'li, go'zal amallari, vafo va sadoqati bilan yaratadi.

Ikki romanning g'oyaviy yaqinligi. «Jannat qidirganlar»ni adibning avvalgi romani bilan yonma-yon o'qish asar mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. «Oltin zanglamas»da nohaq tuhmatga uchragan, og'ir sinovlardan o'tsa-da, e'tiqodi va insoniyligini saqlab qolgan qahramon taqdiri tasvirlangan [7]. Romanning nomi ham ramziy: chin inson oltin kabidir, uni hech qanday sinov zanglata olmaydi. «Jannat qidirganlar»da esa yozuvchi masalaning teskari tomoniga nazar tashlaydi, ya'ni sinov oldida ojizlik qilgan, oson yo'lni tanlagan kishilar qismatini ko'rsatadi. Birinchi romanda sadoqatning qadri, ikkinchisida sadoqatsizlikning bahosi ochib beriladi. Shu sababdan kitobxonlar ikkinchi asarni birinchisining davomi sifatida qabul qilishi tabiiy. Aslida ularni syujet emas, balki yagona axloqiy savol birlashtiradi: inson eng og'ir damda nimani tanlaydi, vijdonnimi yoki manfaatnimi?

Bu qiyos yana bir muhim xulosaga olib keladi. Shuhrat qahramonlarini «ijobiy» va «salbiy» degan tayyor qoliplarga solmaydi. U inson tabiatining murakkabligini, yaxshilik va yomonlik bir qalbda kurashishini ko'rsatadi. Azam tug'ma yovuz emas, u tarbiyadagi bo'shliq, boylikka hirs va oson hayot ilinji tufayli adashgan odam. Shuning uchun uning fojiasi kitobxonda nafrat bilan birga achinish ham uyg'otadi. Adabiyotshunoslikda bunday yondashuv xarakter yaratishning realistik tamoyili sifatida baholanadi [5].

Oila va farzand mavzusi. Romanda vatan tushunchasi oila tushunchasi bilan chambarchas bog‘langan. Yozuvchi nazarida vatan ulkan xarita emas, avvalo ota uyi, ona allasi, farzand kulgisi, qo‘ni-qo‘shni mehridir. Azam Nafisani tashlab ketar ekan, aslida mana shu kichik vatandan yuz o‘giradi. Uning keyinchalik yurtni tark etishi shu birinchi xiyonatning mantiqiy davomidir. Demak, adib talqinida vatanga xiyonat birdaniga sodir bo‘lmaydi, u yaqin kishisiga, sevgisiga, bergan va’dasiga xiyonat qilishdan boshlanadi. Bu kuzatish romanning tarbiyaviy qimmatini yanada oshiradi: vatanparvarlik baland so‘zlardan emas, kundalik hayotdagi halollik va vafodan boshlanishini ko‘rsatadi.

Nafisaning begona bolaga o‘z farzandidek mehr ko‘rsatishi, keksa qaynotasini parvarishlashi ham shu g‘oyaga xizmat qiladi. Ayol o‘z mehri bilan parchalangan oilani, uzilgan rishtalarni qayta bog‘laydi. Yozuvchi shu orqali millatning ma’naviy tayanchi ona va ayol ekanini, oilani asragan xalq o‘zligini ham asrab qolishini ta’kidlaydi.

Til va uslub xususiyatlari. Roman tili sodda, ravon va xalqona. Shuhrat nasrga shoir sifatida kirib kelgan ijodkor, shu bois uning tasvirlarida she’riy nafas, lirik kayfiyat seziladi. Ayniqsa, vatan sog‘inchi tasvirlangan o‘rinlarda jumlalar ohangdor, hissiyotga boy bo‘ladi. Qahramonlar nutqi ularning xarakteriga mos individuallashtirilgan. Azamning gaplarida ayyorlik va manfaat hisobi, Nafisaning so‘zlarida samimiyat va sabr, keksalar nutqida esa hayot tajribasidan tug‘ilgan hikmat aks etadi.

Asarda maqol, matal va iboralar keng qo‘llangan. «Tulki tumshug‘idan ilindi» kabi bob sarlavhalari voqea mazmunini ixcham va obrazli ifodalaydi. Xalq og‘zaki ijodi unsurlaridan foydalanish ikki vazifani bajaradi. Bir tomondan, u asarning milliy ruhini kuchaytiradi. Ikkinchi tomondan, muallif bahosini bevosita aytmasdan, xalq donishmandligi tili bilan bildiradi. Natijada kitobxon nasihat eshitayotgandek emas, hayotiy haqiqat bilan yuzlashayotgandek bo‘ladi.

Makon va zamon tasviri. Romanda ikki makon, ya’ni ona yurt va begona el qarama-qarshi tasvirlangan. Ona yurt tasvirida iliq ranglar, tanish hidlar, mahalla, hovli, bog‘cha, do‘stlar davrasi ustunlik qiladi. Begona el tasvirida esa tashqi yaltiroqlik ortidagi sovuqlik, begonalik, yolg‘izlik hissi yetakchi. Bu tasvirlar qahramonlarning ruhiy holati bilan uyg‘un keladi: odam ichida xotirjamlik bo‘lmasa, eng go‘zal shahar ham unga zindondek tuyuladi. Zamon tasvirida xotira muhim o‘rin tutadi. Qahramonlar tez-tez o‘tmishni, bolalik va yoshlik yillarini eslaydilar. Xotira lavhalari hozirgi kunning achchiq haqiqati bilan yonma-yon qo‘yiladi va fojiani yanada bo‘rttirib ko‘rsatadi.

Asarni bugungi nigoh bilan o‘qish. Roman o‘tgan asrning oltmishinchi yillarida yozilgan va tabiiyki, unda o‘sha davr adabiy muhitining ta’siri seziladi. Chet el hayoti tasvirida ayrim o‘rinlarda bir yoqlamalik, davr mafkurasi talabiga mos bo‘yoqlar uchraydi. Bugungi kitobxon buni hisobga olgan holda asarni tanqidiy o‘qishi lozim. Biroq romanning asosiy qadriyati mafkuraviy

qobiqda emas, umuminsoniy mazmundadir. Vatanga muhabbat, oilaga sadoqat, halol mehnat, vijdon oldidagi javobgarlik har qanday tuzum va zamonda o‘z qimmatini saqlaydigan qadriyatlardir. Asarning uzoq yashab kelayotgani va hanuz o‘qilayotgani ham shu bilan izohlanadi [2].

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida mehnat muhojirligi, xorijdagi vatandoshlar hayoti yana dolzarb mavzuga aylandi. Shu nuqtayi nazardan «Jannat qidirganlar» bu mavzuning adabiyotimizdagi ilk yirik tajribasi sifatida keyingi avlod ijodkorlari uchun o‘ziga xos tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Romanni keyingi davrda yaratilgan shu mavzudagi asarlar bilan qiyoslab o‘rganish kelgusi tadqiqotlarning istiqbolli yo‘nalishi bo‘la oladi.

Romanni o‘quv jarayonida o‘rganish. Asarni adabiyot darslari va to‘garak mashg‘ulotlarida o‘rganishda bir necha usulni tavsiya etish mumkin. Birinchidan, Azam va Nafisa obrazlarini qiyosiy jadval asosida tahlil qilish o‘quvchilarga xarakterlar o‘rtasidagi farqni yaqqol ko‘rish imkonini beradi. Ikkinchidan, «Inson uchun jannat qayerda?» mavzusida bahs-munozara o‘tkazish o‘quvchilarni mustaqil fikr bildirishga undaydi. Uchinchidan, Bobur ruboiylari bilan roman parchalarini yonma-yon o‘qish mumtoz va zamonaviy adabiyot o‘rtasidagi ko‘prikni ko‘rsatadi. To‘rtinchidan, bob sarlavhalaridagi maqollar ma’nosini izohlash orqali o‘quvchilarning so‘z boyligi va xalq og‘zaki ijodiga qiziqishi ortadi. Bunday yondashuv o‘quvchini asar matni bilan bevosita ishlashga, o‘z xulosasini matndan olingan dalillar bilan asoslashga o‘rgatadi [8].

Boylik va baxt munosabati. Romanning yana bir muhim qatlami boylik va baxt o‘rtasidagi munosabat masalasidir. Azam va Saidakbar hoji uchun boylik hayotning maqsadi, baxtning o‘lchovi hisoblanadi. Ular mol-dunyoni saqlab qolish yoki ko‘paytirish uchun eng aziz narsalaridan, ya’ni yurtidan, yaqinlaridan, hatto o‘z nomidan kechishga tayyor. Yozuvchi bu yo‘lning oxirini ko‘rsatadi: boylik bor, lekin uni baham ko‘radigan yaqin odam yo‘q, dasturxon to‘kin, lekin atrofida o‘z tilida so‘zlashadigan suhbatdosh yo‘q. Bunday holatda boylik insonga quvonch emas, yuk bo‘lib qoladi. Adib bu fikrni keksa qahramonlar taqdirida ayniqsa ta’sirli ochadi. Umrining oxirida odam o‘ylaydigan narsa topgan puli emas, qoldirgan izi, farzandlari, qabri qayerda bo‘lishi ekani ko‘rsatiladi. Sharq adabiyotida qadimdan mavjud bo‘lgan «g‘ariblikda o‘lmoq» motivi romanda shu tariqa yangicha jaranglaydi.

Nafisa va Ummatali kabi qahramonlar uchun esa boylik maqsad emas. Ular oz narsaga qanoat qiladi, lekin vijdoni tinch, ko‘ngli butun. Yozuvchi qanoat va shukronalikni zaiflik emas, ma’naviy kuch belgisi sifatida talqin etadi. Bu talqin o‘zbek mumtoz adabiyotidagi, xususan, Alisher Navoiy ijodidagi qanoat haqidagi qarashlar bilan hamohangdir. Demak, roman zamonaviy mavzuda yozilgan bo‘lsa-da, uning axloqiy asosi milliy adabiyotning ko‘p asrlik an’analariga tayanadi.

Muallif pozitsiyasi. Romanda muallif ovozi ochiq publitsistik chekinishlar orqali emas, asosan voqealar mantig‘i va qahramonlar taqdiri orqali eshitiladi. Shuhrat hukm chiqarishga shoshilmaydi, kitobxonga xulosa chiqarish imkonini qoldiradi. Shu bilan birga, adibning hamdardligi kim tomonda ekani aniq seziladi. U sabr qilgan, halol yashagan, og‘ir damda yaqinini tashlab ketmagan kishilar tomonida turadi. O‘zi urush va qatag‘on azobini ko‘rgan, ammo yurtidan ham, e’tiqodidan ham voz kechmagan yozuvchi uchun bu pozitsiya shunchaki adabiy usul emas, hayotiy e’tiqod edi [3]. Roman samimiyatining manbai ham shunda.

Kitobxon qabuli. Asar e’lon qilingan paytidan boshlab keng kitobxonlar ommasi tomonidan iliq kutib olingan va qayta-qayta nashr etilgan. Bugun ham u kutubxonalarda eng ko‘p so‘raladigan o‘zbek romanlari qatorida turadi, yoshlar orasida elektron va audio shaklda ham o‘qilmoqda. Bu hol romanda ko‘tarilgan masalalarning eskirmaganidan dalolat beradi. Har bir yangi avlod asardan o‘z savoliga javob topadi: bir avlod uni vatanparvarlik haqidagi roman sifatida o‘qigan bo‘lsa, bugungi yoshlar unda muhojirlik, o‘zlikni saqlash, oila va martaba o‘rtasidagi tanlov muammolarini ko‘radi. Chinakam badiiy asarning belgisi ham uning har davrda yangicha o‘qilishidadir.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Maqolada bayon etilgan kuzatish va xulosalardan oliy ta’lim muassasalarida «XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi» fanidan ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida, umumta’lim maktablari va akademik litseylarda sinfdan tashqari o‘qish darslarida, shuningdek, yoshlar o‘rtasida vatanparvarlik tarbiyasiga bag‘ishlangan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda foydalanish mumkin. Ayniqsa, xorijga o‘qishga yoki ishlashga ketayotgan yoshlar bilan o‘tkaziladigan suhbatlarda roman voqealariga murojaat qilish foydali. Asar ularga begona yurtda duch kelinadigan ma’naviy sinovlar haqida oldindan o‘ylab ko‘rish, o‘zligini va ona tilini asrash, oilasi va yurti bilan rishtani uzmaslik muhimligini anglashga yordam beradi. Kelgusida romanning poetikasi, xususan, sarlavhalar tizimi, portret va peyzaj tasviri, qahramonlar nutqining lingvopoetik xususiyatlarini alohida o‘rganish, asarni adibning she’riy merosi bilan qiyoslash maqsadga muvofiqdir. Bunday tadqiqotlar Shuhrat ijodining o‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘rnini yanada to‘liqroq belgilash imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Shuhratning «Jannat qidirganlar» romani o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos mavzuni, ya’ni yurtidan yiroqda yurgan o‘zbeklar hayotini keng ko‘lamda ochib bergan dastlabki badiiy namunalardan biridir. Tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, roman yozuvchining «Shinelli yillar» va «Oltin zanglamas» asarlari bilan g‘oyaviy jihatdan uzviy bog‘liq bo‘lib, adib ijodidagi inson va sinov, inson va sadoqat mavzusining mantiqiy davomi hisoblanadi.

Ikkinchidan, sarlavhadagi «jannat» timsoli ramziy ma’noga ega. U soxta jannat, ya’ni begona yurtdagi moddiy farovonlik bilan chin jannat, ya’ni ona yurt, halol mehnat va oila mehri o‘rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi.

Uchinchidan, Azam va Nafisa obrazlari kontrast asosida qurilgan. Azam taqdiri xiyonat va manfaatparastlikning muqarrar inqirozini, Nafisa taqdiri esa sadoqat va sabrning g‘alabasini ko‘rsatadi. Ummatali va Saidakbar hoji obrazlari vatangadolik fojiasining ijtimoiy va oilaviy oqibatlarini ochib beradi.

To‘rtinchidan, romanda Bobur an’anasiga borib taqaladigan vatan sog‘inchi mavzusi yangi davr materiali asosida qayta talqin etilgan.

Beshinchidan, asar bugungi globallashuv davrida yurtidan yiroqda yashayotgan yoki tahsil olayotgan yoshlar uchun ruhiy tayanch, o‘zlikni anglash, an’ana va qadriyatlarni qadrlash borasida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Muallif har bir obraz orqali jamiyatdagi muammolarni ko‘rsatibgina qolmay, o‘quvchini mustaqil fikrlashga, vatanparvarlik va fidoyilikka undaydi. Shu sababli romanni umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida sinfdan tashqari o‘qish uchun tavsiya etish, uning badiiy xususiyatlarini maxsus tadqiq qilishni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bobur Zahiriddin Muhammad. Devon. Toshkent: Fan, 1994.

2. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘qituvchi, 1999.

3. Mirvaliyev S. O‘zbek adiblari. Toshkent: Yozuvchi, 2000.

4. Normatov U. Oltin zanglamas // Ziyouz portali. URL: https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/umarali-normatov-oltin-zanglamas

5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.

6. Shuhrat. Jannat qidirganlar: roman. Toshkent, 1968.

7. Shuhrat. Oltin zanglamas: roman. Toshkent, 1965.

8. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.